Foydalanish bo‘yicha qo‘llanma

O‘yin kreslosi

ARDOR GAMING Force Armor 9000M

Mundarija

Force armor. 2
9000M. 2
Asosiy xususiyatlar. 2
Ehtiyot choralari. 3
O‘rnatish, saqlash, tashish (transportirovka), sotish va utilizatsiya qilish qoidalari va shartlari. 3
Kreslo gabarit o‘lchamlari. 4
Yig‘ish. 5
Mahsulotdan foydalanish. 6
Balandlikni sozlash. 6
Suyanchiq qattiqligini sozlash. 7
Suyanchiq qiyaligini sozlash. 8
Qo‘ltiqtayanchlar. 8
Qo‘shimcha ma’lumot. 9

ARDOR GAMING

Force armor

9000M

Asosiy xususiyatlar

- Model: Force Armor 9000M
- Savdo markasi: ARDOR GAMING
- Maksimal yuklama: 150 kg
- Qoplama materiali: ekocharm+mato
- Xochsimon asos (krestovina) materiali: metall
- Tebranish mexanizmi: multiblok
- Kreslo balandligi: 1375–1435 mm
- Kreslo kengligi: 770 mm

- O‘rindiq balandligi: 470–530 mm
- O‘rindiq o‘lchamlari: 600 × 610 mm
- Suyanchiq o‘lchami: 545 × 910 mm
- Kreslo og‘irligi: 26,85 kg
- Qo‘llanish sohasi: maishiy

Mahsulotning vazifasi: kreslo qulay ishlashni ta’minlash uchun mo‘ljallangan.


Ehtiyot choralari

- Ruxsat etilgan maksimal og‘irlikdan oshirmang.
- Kreslodan isitish va qizdirish qurilmalarining bevosita yaqinida foydalanilganda, foydalanish vaqtida uning yuzasi qizishdan himoyalangan bo‘lishi kerak. Mebel elementlarining qizish harorati +40 °C dan oshmasligi kerak.
- Kreslodan ochiq olov yaqinida foydalanmang.
- Mebel mahsulotlaridan foydalanishda polga tegib turadigan mebel mahsulotlari elementlariga suv va boshqa suyuqliklar tushishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.
- Mahsulotni yig‘ishni faqat ilova qilingan yo‘riqnomaga to‘liq muvofiq ravishda bajaring.


O‘rnatish, saqlash, tashish (transportirovka), sotish va utilizatsiya qilish qoidalari va shartlari

- Mahsulotni o‘rnatish qoidalari va shartlari ushbu qo‘llanmaning «Yig‘ish» bo‘limida bayon etilgan.
- Qurilma ishlab chiqaruvchida va iste’molchida qadoqda, isitiladigan xonalarda, havo harorati 5 °C dan 40 °C gacha va havoning nisbiy namligi 80% dan oshmagan sharoitda saqlanishi kerak. Xonalarda korroziyaga olib keladigan agressiv aralashmalar (kislota va ishqor bug‘lari) bo‘lmasligi kerak.
- Qurilmani tashish quruq muhitda amalga oshirilishi kerak.
- Qurilma ehtiyotkorlik bilan muomala qilishni talab qiladi, uni chang, iflosliklar, zarbalar, namlik, olov va h.k. ta’siridan asrang.
- Qurilmani sotish mahalliy qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi kerak.
- Ushbu mahsulotni utilizatsiya qilish chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha mahalliy normalar va qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.
- Qurilmada nosozlik aniqlanganda darhol vakolatli servis markaziga murojaat qilish yoki qurilmani utilizatsiya qilish kerak.

Kreslo gabarit o‘lchamlari




137,5–143,5 sm




91 sm

Yig‘ish




Mahsulotdan foydalanish

Balandlikni sozlash




Suyanchiq qattiqligini sozlash

- Kresloni ko‘tarish uchun biroz qo‘zg‘aling va richagni yuqoriga torting.
- Kresloni tushirish uchun unga o‘tiring va richagni yuqoriga torting.



- Suyanchiqni qulfdan chiqarish uchun vintni tortib chiqaring.
- Suyanchiqni qulflash uchun unga suyanmagan holda vintni bosing.
- Suyanchiq qattiqligini oshirish uchun vintni soat millari yo‘nalishida, kamaytirish uchun esa soat millariga qarshi yo‘nalishda burang.

Suyanchiq qiyaligini sozlash




Richagni oxirigacha torting va kerakli qiyalikni tanlamaguningizcha kreslo suyanchig‘iga sekin suyaning. Shundan so‘ng richagni ehtiyotkorlik bilan dastlabki holatiga qaytaring.

Qo‘ltiqtayanchlar

Izohlar

- Agar qo‘ltiqtayanchlar yuqoriga ko‘tarilgan bo‘lsa, qo‘ltiqtayanchga maksimal yuklama — 20 kg.
- Agar oyoq kaftlaringiz polga to‘liq tegib tursa, kreslo to‘g‘ri sozlangan bo‘ladi.



1. Yuqoriga-pastga.
2. Chapga-o‘ngga.
3. Yuqoriga ko‘tarish.

Qo‘shimcha ma’lumot

Manufacturer: Anji Wanbao Intelligent Home Technology Co., Ltd. Bamboo Industry Park, Qianshi NO.1 Road, Xiaofeng Subdistrict, Anji County, Zhejiang Province, China.

Ishlab chiqaruvchi: Anji Wanbao Intelligent Home Technology Co., Ltd. Bamboo sanoat parki, Qianshi shossesi, №1, Xiaofeng tumanchasi, Anji okrugi, Zhejiang provinsiyasi, Xitoy.

Xitoyda ishlab chiqarilgan.

O‘zbekistonda importyor: XK MChJ «DNS GLOBAL» (STIR 312372987), Toshkent sh., Mirobod tumani, Said Baraka ko‘chasi, 34a. Sayt: dns-shop.uz

Mahsulot O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga javob beradi.

Mahsulotimiz sifatini yaxshilash maqsadida mahsulotning tashqi ko‘rinishi va uning xususiyatlari oldindan xabar qilinmasdan o‘zgartirilishi mumkin.

Kafolat muddati: 36 oy. / Xizmat muddati: 36 oy.

Servis markazlari ro‘yxati — dns-shop.uz internet-do‘konining «Servis markazi» bo‘limida (dns-shop.uz/uz/service-center/). Shuningdek, mahsulot sotib olingan do‘konga murojaat qilishingiz mumkin.

Ishlab chiqarilgan sana qadoqda ko‘rsatilgan v.3

Qaydlar uchun



dns-shop.uz